

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

JAMILOVA NIGINABONU QOBIL QIZI

**FURFUROL ASOSIDA BELGILANGAN XOSSALI BIRIKMALARNING
OLINISHI, XOSSALARI VA TEXNOLOGIYASI**

02.00.14 - Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Jamilova Niginabonu Qobil Qizi

Furfurol asosida belgilangan xossali birikmalarning
olinishi, xossalari va texnologiyasi..... 5

Жамилова Нигинабону Кобил кизи

Получение, свойства и технология соединений с заданными свойствами на
основе фурфурола..... 21

Jamilova Niginabonu Qobil Qizi

Obtaining property and technology of compounds
with specified properties based on furfural..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 43

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

JAMILOVA NIGINABONU QOBIL QIZI

**FURFUROL ASOSIDA BELGILANGAN XOSSALI BIRIKMALARNING
OLINISHI, XOSSALARI VA TEXNOLOGIYASI**

02.00.14 - Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyada B2024.2.PhD/T4592 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (ik-kimyo.nuu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmedov Voxid Nizomovich
texnika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Adilov Ravshan Irkinovich,
texnika fanlari doktori, professor

Fayzullayev Normurod Ibodullayevich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.04.01 raqamli Ilmiy Kengashning "___" _____ 2025 yil soat "___" dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent sh., Shayxontoxur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 32-uy. Tel.: (99871)244-79-20, faks: (99871) 244-79-17, e-mail: tkti_info@edu.uz). Toshkent kimyo-texnologiya instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: (100011, Toshkent sh., Shayxontoxur tumani, A.Navoiy ko'ch.32. Tel.: (99871) 244-79-20).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil "___" _____ dagi № ___ raqamli reestr bayonnomasi).

S.M. Turobjonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor, akademik

X.I. Kadirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, t.f.d., professor

G. Raxmonberdiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda sanoat organik mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyoj ortishi, neft-gaz zaxiralarining chegaralanganligi bilan, yangi tabiiy resurslardan foydalanish muammosini keltirib chiqarmoqda. Ma’lumki, furan halqalari tabiiy birikmalar, dori preparatlari (fubromigan, ranitidin, didanozin, zidovudin, ftorafur va bosh.) tarkibida saqlanib, akrilatlar va epoksid smolalar ishlab chiqarishda “yashil” erituvchi sifatida foydalaniladi, ekologik toza dizel yoqilg‘isi va texnik tozalash aralashmalari tarkibiga kiritilgan. Tabiiy qayta tiklanuvchi xomashyo resurslardan foydalanish, jumladan kimyoviy tabiatga ega, fizik - mexanik, magnit, optik-elektron va boshqa tukuraviy xususiyatlarga ega, tavsifi bo‘yicha individual tarkibiy komponentlardan muhim, komponentlar kombinatsiyasi asosida shakllantirilgan furan asosli polimer kompozitsion materiallarning yangi turlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda furan asosli polimer kompozitsion materiallar tarkibini ishlab chiqish, ularning amaliy qo‘llanilish imkoniyatlarini oshiruvchi spirtlarni tanlab modifikatsiyalash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, furan birikmalarini atsetilen bilan vinillash, “yashil” kimyo usulini qo‘llab, furan fragmentini saqlagan vinil efirlari sintez qilish, polifunksional furan strukturalarining dizayni uchun matritsa hisoblanuvchi gibrid kompozitsiyalar olish, ular asosida sanoatda maqsadli foydalanish mumkin bo‘lgan materiallar chiqarish texnologiyalarini yaratish va sinovdan o‘tkazishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda furan halqasi saqlovchi birikmalar asosida kimyoviy modifikatsiyalangan, zararsiz komponentlar kombinatsiyasi asosi yuqori molekulyar mahsulotlar olish, ulardan energiya va resurs tejankor tizimlarda foydalanishga alohida e’tibor qaratilib, muayyan ilmiy natijalarga erishildi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari salohiyatini yanada rivojlantirish, tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish”¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, furan halqasi saqlovchi geterosiklik birikmalarning vinil hosilalari ishtirokida zol-gel sintez mahsulotlari asosida gibrid polimer sistemalar olinish, kompozitsiya sorbentlar uchun organik matritsa, proton o‘tkazuvchi membranalar, emulgatorlar, dorivor preparatlar ishlab chiqarish qaratilgan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017 yil 23 avgustdagi PQ-3236-son “2017-2021 yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-sonli “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 3 apreldagi №PQ-4265-son “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli bo‘lgan boshqa

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. "Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Furan halqasi saqlagan vinil hosilalar sintezi bo'yicha C.Walsh Daniel, E.Mbuligwe Stephen, R.Alam, K.Sugihiro, S.Mamoru, Schwetlick Wolfgang, J.Reich, B.A. Trofimov, O.N. Temkin, R.M. Flid, L.B. Fisher, I.L. Kotlyarevskiy, A.A. Petrov, B. Gusev, A.V. Shelkunov, Paru Ram Pao, L. Panivnika, Yoko Yamamoto, Biao Jiang, A.G. Maxsumov, K.M. Axmerov, T.S. Sirliboyev, D. Yusupov, A. Ikramov, B.F. Muxiddinov, S.E. Nurmonov, R. Nazirova, F.A. Magrupov, G. Raxmonberdiev, A.T. Djalilov, S.M. Turobjonov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Ular tomonidan, atsetilen birikmalar va ionitlar sintez qilingan, faol vodorodli organik birikmalarni vinillash uslublari ishlab chiqilgan, furan halqali birikmalar kimyoviy modifikatsiyalangan, komponentlar kombinatsiyasi asosi yuqori molekulyar mahsulotlar olish texnologiyalari tavsiya etilgan.

Shu bilan birga, furan halqali geterosiklik birikmalarning vinil hosilalarini olish, ular ishtirokida zol-gel sintezi mahsulotlari asosida gibrid polimer sistemalar tarkibini ishlab chiqish, kompozitsion sorbentlar uchun organik matritsa, proton o'tkazuvchi membranalar ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar bugungi kunga qadar bajarilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining №37-22 raqamli "Antibakterial kompozitsiya uchun tarkib ishlab chiqish va texnologiyasini yaratish" (2020-2022 yy.) mavzularidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi furan halqasi saqlagan vinil efirlarining sopolimerlanishi asosida organo-noorgano gibrid kompozitlar olish texnologiyasini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

vinilfurfurol va akril kislota asosidagi sopolimerlar sintez qilish, olingan mahsulotlarining tarkibi va tuzilishini aniqlash;

polisilikat kislota va furan halqali birikmalarning vinil hosilalari ishtirokida zol-gel sintez usuli bilan gibrid kompozitlarni shakllantirish;

gibrid kompozitlarning tarkibi va tuzilishini o'rganish;

olingan ionit - kompozitlarning metall ionlariga nisbatan sorbsion faolligini aniqlash;

furan halqasi saqlagan gibrid kompozitning olinish texnologiyasini yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida furfurol, atsetilen, akril kislota, polisilikat kislota, furan qatori birikmalarning vinil hosilalari, vinilfurfurol va akril kislota asosidagi sopolimerlar olingan.

Tadqiqotning predmetini vinilfurfurol va akril kislotasining sopolimerlash va polimerlash jarayonlari mahsulotlari asosida gibrid kompozit, metall ionlari sorbentlari tarkibini ishlab chiqish tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda olingan mahsulotlarning matematik statistika va modellashtirish, mass-spektroskopiya, titrimetrik va gravimetrik tahlil usullari va bulardan tashqari fizik-mexanik, texnologik va ekspluatatsion xususiyatlarini aniqlashda standartlashtirilgan sinov uslublaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

vinilfurfurolning erituvchilar ishtirokida akril kislota bilan radikal katalitik sopolimerlanish mahsuloti zol-gel usulida olingan polisilikat kislota bilan gibrid kompozit hosil qilishi isbotlangan;

yuqori termik va kimyoviy barqaror gibrid kompozitlarda matritsa organik sopolimerlar bilan mustahkam bog'langan uch o'lchamli kremniy dioksid ekanligi asoslangan;

vinilfurfurol va akril kislota sopolimeri asosidagi kompozitlar metallarning ionlarini adsorbsiyalash mexanizmi harorat ta'sirida o'zgarish qonuniyatlari aniqlanib, past haroratda jarayon fizik adsorbsiyaligi isbotlangan;

kompozitlarda metall ionlarining adsorbsiyasi ionit sirtida amalga oshishi aniqlanib, harorat ko'tarilishi kimyoviy faol guruhlar bilan metall ionlarining kompleks hosil qilishi ilmiy asoslangan;

sintez qilingan sopolimerlar polisilikat kislota bilan gidrolitik polikondensatlanish mahsulotlari asosida ionitlar olinish texnologiyasi ishlab chiqilgan va amaliy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

furfurolni atsetilen bilan vinillash mahsulotining akril kislota bilan sopolimeri asosida polisilikat kislota asosli ionitlar ishlab chiqarish maqbul parametrlari aniqlangan;

furan halqasi saqlagan vinil efirlarning sopolimerlanishi asosida yangi gibrid kompozitlar olish maqbul parametrlari aniqlangan;

furan halqasi saqlagan vinil efirlar sopolimerlarining polisilikat kislota bilan gidrolitik polikondensatlanish mahsulotlari asosida proton o'tkazuvchi ionitlar olinish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlilda zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot uslublari, yuqori termik va kimyoviy barqaror gibrid kompozitlar matritsa olish tizimini takomillashtirilishi, furan halqasi saqlagan sopolimerlar polisilikat kislota bilan gidrolitik polikondensatlanish mahsulotlari asosida proton o'tkazuvchi selektiv ionitlar ishlab chiqarish texnologiyalarini sanoatga joriy etilganligi bilan isbotlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati metall ionlariga nisbatan yuqori sorbsion faol, statik sorbsion yutish koeffitsienti va mexanik mustahkamligi yuqori gibrid polimer sistemalar ishlab chiqish, kompozitsion sorbentlar uchun organik matritsa, proton o'tkazuvchi membranalar tarkibini olish ilmiy asoslarini yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, furan halqasi saqlagan sopolimerlarning polisilikat kislota bilan gidrolitik polikondensatlanish mahuloti asosida texnologik eritmalaridan ionlarini selektiv ajratuvchi, termik va kimyoviy barqaror ionitlar olish texnologiyasini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Vinilfurfurol, akril va polisilikat kislota asosidagi gibrid kompozitlar olish texnologiyasini ishlab chiqish va ionitlar sifatida qo'llash bo'yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

zol-gel jarayoni mahsulotlaridan olingan gibrid-ionitlar "Navoiy kon-metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati"da oqova suvlarini tozalashda ishlab chiqarishga joriy qilingan ("Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ 2024 yil 12 dekabrda 23/01-01-07/798-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, selektiv gibrid-ionitlarni qo'llab, korxonada oqova suvlarini Ca^{2+} , Mg^{2+} , Cu^{2+} ionlaridan samarali tozalash imkonini bergan;

vinilfurfurolni akril kislota bilan sopolimeri va polisilikat kislota asosidagi zol-gel jarayoni mahsulotidan olingan gibrid kompozit ionit sifatida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati"da oqova suvlarini tozalashda ishlab chiqarishga joriy qilingan ("Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ 2024 yil 12 dekabrda 23/01-01-07/798-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, amaldagi ionitga nisbatan Ca^{2+} , Mg^{2+} , Cu^{2+} ionlarni yutish qobiliyati 1,25 barobar samarali, mexanik mustahkamligi 1,24 marta mustahkam bo'lib, agressiv muhitlarga barqarorligi undan turli muhitlarda foydalanish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlar va simpoziumlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari (PhD) asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 6 ta, xorijiy jurnallarda 4 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Furfurol va u asosidagi tadqiqotlarning rivojlanish istiqbollari va zamonaviy holati**" deb nomlangan birinchi bobida, furfurol kimyosining rivojlanish tendensiyalari, samarali ionitlarning yaratilish sohasidagi

tadqiqotlarning rivojlanish istiqbollari va zamonaviy holati tahlil qilinib, natijada mazkur tadqiqotning maqsadi va vazifalari ifodalangan.

Dissertatsiyaning “**Furfurol asosidagi organik ionitlarning sintezi va tadqiqot usullari**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektini tanlash, reagentlarni tayyorlash uslubiyoti, sintezni amalga oshirish tartibi va sintez qilingan ionitlarni mexanik, sorbsion va kimyoviy tadqiq qilish metodlari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Furan guruhi saqlagan birikmalarning vinil hosilalarini akril monomerlari bilan sopolimerlanishi**” deb nomlangan uchinchi bobida furfurol vinilatsetilen bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri vinillash haqida ma’lumotlar juda cheklangan. Ishqoriy muhitda furfurolni Kanitsarro reaksiyasiga kirishishini e’tiborga olgan holda toza furfurol tanlandi. Sintez natijasida furfurol va vinilatsetilendan yuqori asosli sistemada, xona sharoiti va atmosfera bosimida olindi.



Yuqori asosli tizim ishtirokida reaksiyaning davomiyligi, haroratga bog‘liq holda reaksiya unumi 80 % ni tashkil etadi.

1-jadval

1-(furanil-2)-penten-4-in-2-ol-1 unumiga haroratning ta’siri (katalizator KOH ning miqdori furfurol massasiga nisbatan - 15%) Reaksiya davomiyligi, 3 soat (mahsulot shartli JNQ-1 deb nomlandi)

№	Reaksiya harorati, °C	1-(furanil-2)-penten-4-in-2-ol-1 unumi, %
1	30	9,6
2	35	13,8
3	40	19,6
4	45	25,4
5	50	35,2
6	55	45,6
7	60	58,2
8	65	65,2
9	70	75,3
10	75	80,1
11	80	78,2
12	85	72,2
13	90	67,8
14	100	57,6
15	110	52,7
16	120	48,8

Ekstraksiya usuli uchun erituvchini tanlashda biz erituvchilar ta'sirida reaktivlar va reaksiya mahsulotlarining eruvchanligi hisobga olindi.


2-jadval


Reaksiyaga kirishuvchi moddalar va mahsulotlarning erituvchilarda eruvchanligi

№	Erituvchilar	Dastlabki moddalar			Mahsulot
		Furfurol	Vinilatsetilen	Akril kislota	JNQ-1
1	Izopropil	eriydi	erimaydi	erimaydi	Erimaydi
2	Oktan	erimaydi	erimaydi	erimaydi	Erimaydi
3	Izobutil	eriydi	eriydi	eriydi	Eriydi
4	Geptan	eriydi	erimaydi	eriydi	erimaydi
5	Toluol	erimaydi	eriydi	eriydi	eriydi
6	Geksan	erimaydi	erimaydi	eriydi	erimaydi
7	Amil spirti	erimaydi	erimaydi	eriydi	eriydi
8	Dekan	erimaydi	erimaydi <td eriydi	erimaydi	
9	Etil spirti	erimaydi	eriydi	eriydi	eriydi
10	Dimetilformamid	eriydi	eriydi	eriydi	eriydi


2 – jadvalda ko'rinib turibdiki, dastlabki reagentlar etil, amil spirtida, dimetilformamidda, toluol, izobutilda erib, mahsulot dekan, oktan, geksanda erimasligidan foydalanib, oligomerni toza holda geptan ishtirokida ajratib olindi va uning fizik xossalari o'rganildi.

Sintez qilingan sopolimerning polisilikat kislota (PSK) matrisaligida olingan granulari o'zining ion almashinish sig'imi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Olib borilgan jarayonni umumiy holda quyidagi reaksiya sxemasi bilan ifodalash mumkin.






Sintez qilingan oligomerni identifikatsiyalash zamonaviy tekshirish usulida olib borildi. Olingan modda IQ spektrda tekshirildi va reaksiya tenglamasiga keltirilgan tarkibdagi funksional guruhlarga mos ekanligi aniqlandi.




1-rasm. Sintez qilingan birikmaning IQ spektr tasviri.

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, 1176 cm^{-1} barcha OH guruhlari, oraliq OH uchun tekis bo‘lmagan egilish tebranishlarining keng polosasi, gidroksil guruh tebranishlari va C – O bog‘lar, $1014,56\text{ cm}^{-1}$ Si-O-Si tebranishi kuchli, $1276,88\text{ cm}^{-1}$ aromatik va vinil guruh = C – O – C -, halqaning tebranishi kuchli, 1718 cm^{-1} sohada to‘yinmagan karbon kislota, $1674,21\text{ cm}^{-1}$ C=C uyg‘unlashmagan makromolekulalardagi nosimmetrik tebranishlari, sintez qilingan modda tarkibiga mos kelishini ifodalaydi.

1-(furanil-2)-penten-4-in-2-ol-1ning xromato-mass spektrometriga kiritilgandan keyin, tanlangan sharoitda 3.573 dan 3.597 minut oralig‘ida m/z 148 bo‘lgan 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 molekulyar ioni hosil bo‘ldi.




2-rasm. 1-(furanil-2)-penten-4-in-2-ol-1ningning xromato-mass spektri.



Mr=148


Bundan tashqari spektrda massasi m/z 131, m/z 104, m/z 97, m/z 84, m/z 67 va m/z 55 bo'lgan bo'lakli ionlarning hosil bo'lishi aniqlandi. 1-(furanil-2)-penten-4-in-2-ol-1ionidan 3.573 minutda gidroksil (-OH) radikalining ajralib chiqishi natijasida m/z 131 ionining ajralishi namoyon bo'ldi. Bu cho'qqi m/z 131 bo'lgan 1-(furan-2-il)penten-4-in-2-il-1 ioniga mos keladi va bu bog' energiyalariga ham mos keladi.



Mr=148

Mr=131


Uchlamchi 1-(furan-2-il)penten-4-in-2-il-1 ionidan metilen (*C₂H₃) radikalining ajralib chiqishi hisobiga m/z 86 ionining ajralishi namoyon bo'ladi. Bu cho'qqi m/z 104 bo'lgan 1-(furan-2-il)-3λ³-propin-2-il-1 ioniga mos keladi.



Mr=131


Mr=104

O'z navbatida 1-(furan-2-il)-3λ³-propin-2-il-1 ionidan 3.597 minutda radikalining ajralib chiqishidan m/z 67 ionining ajralishi namoyon bo'ldi.



Tahlil oxirida hosil bo'lgan ionlarning kinetik qonuniyatlari ham o'z navbatida halqaning ochilish murakkabligiga mos holda sodir bo'ladi. Dastlabki bosqichda yon zanjirning ionlari ajralishi va so'nggra halqaning parchalanishi moddaning strukturasi to'g'riligi va aniq identifikatsiya qilinganligi, qonuniyatlarga mosligi bilan tasdiqlaydi.

Dastlabki aralashmada 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 ning monomerning ulushi ortishi bilan sopolimerlarning molekulyar massalari ko'payishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida vinil guruhning polimerlanishga moyilligi yuqoriligi bilan izohlanadi.



3-rasm. 1-(furanil-2)-penten-4-in-2-ol-1 ning akril kislota bilan sopolimerlanish reaksiyasida 1-(furan-2-il)-penten-4-in-2-il-1 miqdorining unumga bog'liqligi; 2-1-(furan-2-il)penten-4-in-2-il-1 ning akril kislota bilan sopolimerlanish reaksiyasida akril kislota miqdorining unumga bog'liqligi.


3-rasmdan ko'rinib turibdiki, reaksiyaga kirishuvchi monomerlarning miqdorini unumga bog'liqligi matematik dastur asosida tahlil etilganda, olingan natijalarning matematik qayta ishlanishidan olingan regressiya tenglasmasida R ning qiymati birga yaqinlashganligi olingan natijalarning matematik qayta ishlash bilan bir xilligini ko'rsatibgina qolmasdan natijalarning to'g'riligini tasdiqlaydi. Shuningdek, monomerlarning har biri uchun olingan regressiya tenglamasining va chiziqlarning bir-biriga teskari proporsionalligi ham natijalarning to'g'riligini tasdiqlaydi. Har ikkala monomerning ham miqdorini o'zgarishi bir xil tenglama bilan amalga oshirishini ko'rsatdi. Nazariy hisoblar amaliy tajribalarni to'ldiradi.

Olingan kationitning fizik-kimyoviy va sorbsion xossalarini o'rganish. Furan halqasi choklagan ionit murakkab uch o'lchovli tuzilishga ega mustahkam, donador

bo'lganligi sababli, uning tuzilishini o'rganishda kimyoviy tahlil usullari bilan parallel ravishda fizik-kimyoviy tahlil usullari foydalanilib tadqiq etildi.

Sintez qilingan ionitdagi ko'p funksiyalar orasidagi ionogen guruhlarining funktsionalligini va dissotsiyalanish darajasini aniqlash maqsadida analitik usul - potentsiometrik titrlash egri chiziqlari olindi.

Eritmalarning muhiti ya'ni pH muvozanati pH metrda aniqlandi, kationitning eritmalar bilan ion almashinish muddati bir hafta davomida o'rganildi. Kationitning potentsiometrik titrlash egri chizig'idan olinadigan eng asosiy xulosa bu pH qiymati oshishi bilan ion almashinish qobiliyatining ortib borishini ko'rsatuvchi monotonik pasayish egri chizig'i bilan tavsiflanadi (4- rasm).



4- rasm. Kation almashinuvchining potentsiometrik titrlash egri chizig'i.

- 1) 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 +AK+PSK; 2) 1-(furanil-2)-penten-4-in-2-ol-1 +AK, 3) 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 +PSK.

Akril kislota karboksil guruhi bilan bir vaqtda gidroksil guruh bilan uning almashinish sig'imini belgilab beradi va bu potentsiometrik titrlashda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Statik rejimda adsorbsiya parametrlarini aniqlash. Statik rejimda adsorbsiya parametrlarini aniqlash uchun adsorbsiya izotermasini ko'rish va ma'lumotlarni matematik qayta ishlash usullaridan foydalaniladi. Adsorbsiya egrisini ko'rish uchun 10 g namuna sorbent, 100 l tarkibida 0,1 dan 1 g/l miqdorgacha og'ir metal birikmalari bo'lgan konsentratsiyada avvaldan tayyorlangan model eritmaga joylashtiriladi. Sorbentning eritma bilan kontaktda bo'lish vaqti 3 soatni tashkil etadi, shu vaqt o'tgach, og'ir metallarning muvozanat konsentratsiyalari o'lchanadi va "A-S_{muv}". Bog'liqlik koordinatsiyalari chiziladi. Bunda A quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$A = (S_0 - S_{mus}) \cdot \frac{V}{m}$$

bu yerda; A – 1 g sorbentga nisbatan aniqlanayotgan ionning adsorbsiyasi, mg/g;

S_0 va $S_{\text{muv.}}$ – ionlarning boshlang'ich va muvozanat konsentratsiyalari, mg/l;

V – eritma hajmi, l;

m – sorbentning massasi, g.

Kalsiy xloridni aniqlash. Titrlash uchun ishlatiladigan titrant hajmi pH=10 va pH=12 da titrlash uchun ishlatiladigan Trilon B hajmlari orasidagi farqdan hisoblanadi. Eritmadagi CaO oksidining miqdori quyidagi formulalar bilan hisoblanadi:

$$m_{Ca^{2+}} = \frac{C_{TB} \cdot V_{TB}^a \cdot M_{Ca^{2+}} \cdot V_k}{V_{\text{aliquot}} \cdot 1000},$$

bu yerda; C_{TB} - Trilon B konsentratsiyasi;

V_{TB}^a – titrlash uchun sarflangan Trilon B hajmi;

V_{aliquot} – analiz qilinayotgan eritmaning alikovit qismi;

V_k – analiz qilinayotgan eritmaning hajmi;

$(V_{TB}^a - V_{TB}^b)$ – pH = 10 va pH = 12 bo'lganda titrlashda sarflangan Trilon B hajmlari farqi

$$C_{Ca^{+2}} = \frac{C \cdot V_1 \cdot 1000}{V_2}$$

$$C_n = \frac{m_1}{E \cdot V} = \frac{2,3125}{186,12 \cdot 1} = 0,0124 \frac{g}{ekv}$$

$$m_1 = C_o \cdot E \cdot V = 0,5 \cdot 20 \cdot 1 = 10 \frac{g}{l}$$

$$m_2 = C_m \cdot E \cdot V = 0,04 \cdot 20 \cdot 1 = 0,08 \frac{mg}{l}$$

$$\frac{(C_o - C_m) \cdot V}{m} = \frac{(0,5 - 0,04) \cdot 50}{1} = 23 \frac{mlg}{ekv/g}$$

Adsorbentning to'liq dinamik hajmiy sigimini (TDHS) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$TDHS = (S_0 - S_{\text{mus}}) \cdot \frac{V_{er}}{m_s}$$

$$D_{tdhs} = \frac{(C_o - C) \cdot V_{er}}{m_c} = \frac{(0,01 - 0,0005) \cdot 1}{5} = 0,0019 \frac{g/ekv}{g}$$

bu yerda; S_0 – tozalanadigan kationlarning boshlang'ich konsentratsiyasi, mg/l;

S – tozalanadigan kationlarning oxirgi konsentratsiyasi, mg/l;

V_{er} – model eritmaning umumiy hajmi, l.

m_s – kolonkadagi sorbent massasi, g.

3-jadval

JNQ-1 ning ionitlik xossasining metallar bilan ionlarining sorbsiyasi

№	O'rganilayotgan ionlarning dastlabki konsentratsiyasi	R-H	R-Na
1.	Magniy xlorid	3,01 – 3,11	4,38 – 4,85
2.	Kalsiy xlorid	3,43 – 4,17	5,88 – 6,51

Mis ionlarining sorbsiyasiga muhitning pH qiymati va kation almashinuvchi shaklining ta'siri

Kation almashinuvchi shakli	Mis ionlarining sorbsiyasi, mg-ekv/g ($C_{\text{chiqH}_2\text{SO}_4} = 1\text{g/l}$)			K disp, mg - ekv/g.	
	pH=5,5	pH=9	pH=11	pH=5,5	pH=9
H - shakli	2,2	2,4	3,0	116	175
Na-shakli	3,3	3,6	4,5	400	450

Kationitning asosiy xossalari

Ko'rsatgichlar nomi	Ko'rsatgichlarning qiymati		
	Gidrometallurgiya sanoati chiqindi suvlarini	MHga ko'ra	Taklif etilgan ionit bilan tozalangan so'ng
pH	7,8	6-9	6,9
Quruq qoldiq	10158,0 mg/dm ³	1500,00 mg/dm ³	1250 mg/dm ³
Qattiq modda	60,9 mg/dm ³	30,0 mg/dm ³	18 mg/dm ³
Suvning umumiy qattiqligi	78,0 mmol/dm ³	10,00 mmol/dm ³	1,5 mmol/dm ³
Kalsiy Ca ²⁺	901,8 mg/dm ³	-	30,1 mg/dm ³
Magniy Mg ²⁺	401,3 mg/dm ³	-	<1,0 mg/dm ³
Xloridlar(Cl ⁻)	1035,3 mg/dm ³	350,00 mg/dm ³	194,97 mg/dm ³
Nitritlar(NO ₂ ⁻)	0,18 mg/dm ³	3,0 mg/dm ³	-
Nitratlar (NO ₃ ⁻)	40,7 mg/dm ³	45,00 mg/dm ³	-
Sulfatlar (SO ₄ ²⁻)	2578,9 mg/dm ³	500,00 mg/dm ³	380 mg/dm ³
Marganes (Mn) ⁺²	0,17 mg/dm ³	0,1 mg/dm ³	0,025 mg/dm ³
Qo'rg'oshin (Pb) ⁺²	0,04 mg/dm ³	0,03 mg/dm ³	0,019 mg/dm ³
Mis (Cu) ⁺²	2,9 mg/dm ³	1,0 mg/dm ³	0,89 mg/dm ³
Xrom (Cr) ⁺³	<0,05 mg/dm ³	0,05 mg/dm ³	0,048 mg/dm ³

Statik almashinish qobiliyatidan tashqari, biz mis ionlarining dinamik sharoitda sorbsiyasini ham o'rgandik, bu kation almashinuvchining ion shakliga, oqim tezligiga va boshqalarga bog'liq. Na-shaklida bir xil oqim tezligida mis ionlarining sorbsiya qobiliyati H-shakliga qaraganda kattaroqdir, ya'ni, 170,6 mg/g va 148 mg/g. So'rilgan mis ionlarining desorbsiyasi sulfat kislotaning ikki normal eritmasini mis ionlari tomonidan so'rilgan ion almashinuvchi qatlamidan o'tkazish yo'li bilan amalga oshirildi. Mis ionlarining desorbsiyasi 92% ni tashkil etdi.

JNQ-1 va KB-4 kationitning asosiy xossalari

№	Ionitning xossalari	Kation turi:	
		1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 -akril kislota-PSK	Nazorat- KB-4
1.	Umumiy massa, g/ml	0,54	0,6-0,55
2.	Ionitning suvda bo'kkan solishtirma hajmi, ml/g		
	R-H shakli	3,48-3,72	2,53-2,28
	R -Na shakli	5,15-5,46	4,1-4,25
3.	Ionogen guruhlar	-COOH, -H	-COOH
4.	0,1 n li NaOH eritmasida statik ion almashinish sig'imi mg-ekv/g	5,92-6,46	4,4-5,0
5.	Statik sig'im 0,1 n. li MgCl ₂ eritmasida		
	R-H tip, mg-ekv/g	3,23-3,02	2,8-3,0
	R-Na tip, mg-ekv/g	4,56-5,03	4,2-4,5
6.	Statik sig'im 0,1 n. li CaCl ₂ eritmasida		
	H-shakl, mg-ekv/g	3,56-4,22	3,2-4,0
	Na shakl, mg-ekv/g	6,03-6,43	6,2-6,6
7.	Statik sig'im 0,1 n. li CuSO ₄ eritmasida CuSO ₄ , (C _{dast} = 1 g/l) R-Na tip, mg-ekv/g	2,88-3,08	2,1-1,8
8.	Statik sig'im 0,1 n. li NiSO ₄ eritmasida NiSO ₄ (C _{dast} = 1 g/l) R-Na tip, mg-ekv/g	2,62-2,83	2,6-3,0
9.	Mexanik mustahkamlik %	98	96-98

Ba'zi metall ionlarining sorbsiyasini o'rganish bo'yicha olingan ma'lumotlar turli xil suvlardan ushbu metall ionlarini sorbsiyalash jarayonlarida hosil bo'lgan kation almashinuvchidan foydalanish imkoniyatini ko'rsatadi.

Sopolimerlarning olinish texnologiyasi. Taklif etilayotgan texnologiya asosida (5-rasm) tarkib uchun kerakli reagentlar (C₂H₂) aralashmasi 2:1 nisbatda adsorber(2)da seolit yordamida quritilib, 20 m³/s sarf bilan R-1 reaktorga dimerlash uchun yuboriladi. Reaktorda oldindan an'anaviy tayyorlangan CuCl+HCl va ammoniy xlorid tarkibli to'yingan katalizator qatlamidan o'tkaziladi. Katalizatorning faolligi gazning o'tish tezligiga bog'liq ravishda o'zgaradi. Mazkur holatdi gazning o'tish tezligiga bog'liq 100-150 daqiqa atrofida bo'ladi. Katalizatorni regeneratsiyalash davrida, kelayotgan xom ashyo oqimi zaxiradagi reaktorga yo'naltiriladi. Bunda R-1 reaktorning harorati 50 °C ni tashkil etadi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasi (atsetilen, vinilatsetilen) 1,5 MPa bosim ostida kompressor(4) orqali sovitgich(5)da sovutuvchi eritma - rassol yordamida sovitilib, separator(6)ga ajratish uchun yuboriladi. Separatorning ish prinsipiga ko'ra ikki qismga ajralgan

komponentlardan reaksiyaga kirishmagan atsetilen yuqori qismidan kompressor(3) orqali chiqarilib adsorberga 0,8MPa bosim ostida yuboriladi. Separator(6)ning pastki qismidan olingan vinilatsetilen ish unumdorligi (60- 80 %) 6 m³/s bo‘lgan nasos (7) yordamida 8- bilan qizdirilib, R-2 reaktoring quyi qismidan furfuroлга biriktiriladi. Bunda mahsulot hosil bo‘ladi. 85 °C haroratli ko‘ylakli reaktor(10)ga yuqori asosli tizim katalizatori 0,5-1,0 kg/s, DMSO erituvchisi 0,8-1,2 kg/s sarf bilan kiritiladi. Aralashtirgich yordamida ko‘ylakli reaktor(10)dagi aralashma 160-180 daqiqa davomida intensiv aralashtirilib turiladi.

Tayyorlangan katalizator va erituvchidan iborat bo‘lgan sistemani, hajmi 2 m³ bo‘lgan tayyorlash sig‘imi(11)ga 1,2-1,8 kg/s sarf bilan furfuroлга aralashtirish uchun kiritiladi. Sig‘imga furfuroл 4,0-6,0 kg/s sarf bilan kiritiladi.

Sig‘im(11)da erituvchi va katalizator furfuroл bilan 150- 180 daqiqa davomida intensiv aralashtiriladi. Mernik yordamida keyingi uzluksiz jarayonlarni mahsulot bilan talab etilgan sarfda ta‘minlab turadi. Hosil bo‘lgan katalitik sistema R-2 reaktoring yuqori qismidan 3,0-5,0 kg/s sarf bilan kiritiladi.


Furfuroл vinil hosila sintezini uzluksiz amalga oshirish uchun R-2 reaktorga reglamentda ko‘rsatilgan hajmlarda xom ashyo yuklanadi.

R-2 reaktoring nasadkali bo‘lishi suyuq furfuroлni va gaz holatdagi vinilasetilenning o‘zaro to‘qnashishlar sonini oshirishi sababli reaksiya unumini yuqori bo‘lishiga olib keladi. Reaksiyaga kirishmagan vinilatsetilen reaktoring tepa qismidan chiqarilib sirkulyatsion gaz sifatida tizimga qaytariladi va unum yuqori bo‘lishi ta‘minlanadi. Hosil bo‘lgan reaksiya aralashmalar (DMSO, KOH, vinil hosila) 0,1 m³/s sarf bilan reaktoring pastki qismida nasos(12) yordamida atrof muhit haroratida (25 °C) hajmi 1 m³ bo‘lgan dietil efirli E-1 ekstraktor kolonnasiga yuboriladi. Bunda, aralashma tarkibidagi DMSO, KOH, furfuroл dietil efir ekstragentida eriganligi sababli kolonnaning yuqori qismida yig‘iladi, asosiy mahsulot vinil hosila esa ekstragentda erimaganligi uchun kolonna tubidan chiqariladi.

Ekstragent va unga erigan qo‘shimchalardan iborat ekstrakt kolonnaning tepa qismidan chiqariladi.

Toza holda ajratib olingan asosiy mahsulot vinil hosila nasos (13) orqali 0,1 m³/s sarf bilan isitgich(14)ga vinil hosilani akril kislota bilan sopolimerlarini hosil qilish uchun yuboriladi. Bu yerda akril kislota va vinil hosila initsiator ishtirokida 75-95 °C haroratda sopolimerlanishga kirishadi. Hosil bo‘lgan sopolimerni 0,1 m³/s sarf bilan sovutgich(15)da sovutib, R-3 reaktorga yuboriladi. R-3 reaktorda matritsa polisilikat kislota bilan gomogenizatsiyalanadi. Reaktoring pastki qismidan chiqarilgan reaksiya mahsuloti nasos(16) orqali 0,1 m³/s sarf bilan pech(17)da 80-120 °C haroratgacha qizdirilib granulyator (18)ga yuboriladi. Granulyator yuqori qismidan tetrabutiltalat yuboriladi va yon qismidan sovuq havo yuboriladi.

Granulyator chiqqan granular elevator(19)ga uzatiladi. Granula o‘lchamiga ko‘ra sinflanadi va undan so‘ng qadoqlash(20)ga yuboriladi. Taklif etilgan texnologiya asosida an‘anaviy ionitlarning tannarxini qiyoslash orqali har bir tonnasiga 5 mln so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishishimiz mumkin (2023 yildagi talab 120 ming tonna).



5- rasm. Ionitning olishning printsipliy texnologik sxemasi. 1-Generator, 2-adsorber, R-1,R-2,R-3-reaktor, 3,4,9-kompressor, 5,15-sovitgich, 6-separator, 7,12,13,16-nasos, 11-reagentlarni tayyorlash sig‘imi, 10 – ko‘ylakli reaktor, E-1-ekstraktor, 8,14-isitgich, 17-pech 18- granulyator, 19-elevator, 20-qadoqlash sig‘imi.

XULOSA

1. Polisilikat kislota asosida zol-gel usulida 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1-akril kislota sopolimeri ishtirokida organo-noorganik gibrid kompozitlar olindi. Kompozitlar strukturasi organik sopolimerlar mustahkam joylashgan uch o'lichamli kremniy dioksiddan matrissaligida shakllangan bo'lib, ularning yuqori termik va kimyoviy barqarorligini ta'minlaydi.

2. DMSO eritmasida radikal sopolimerlanish bilan 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1-akril kislota sistemali yangi sopolimerlar 85 °C da initsiator ishtirokida 3 soat davomida 78 % unum bilan olindi. Halqali monomerlar ularning somonomerlariga nisbatan yuqori reaksiya qobiliyatini namoyon qilishi aniqlandi, unumga dastlabki moddalar miqdori ta'sir etishi aniqlandi.

3. 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 – akril kislota va PSK asosidagi gibrid kompozitlar kislotali va ishqoriy muhitda kalsiy, magniy, mis ionlariga nisbatan yuqori sorbsion faollikni namoyon qiladi. Sorbsion sig'imning va fazalararo taqsimlanish koeffitsientining eng katta qiymatlari 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 - AK-PSK sistemasida karboksil va gidroksil guruhlar hisobiga ionitlik xossasini namoyon qilib, statik sorbsion yutish koeffitsienti 1,25 marta, mexanik mustahkamligi 1,24 marta yaxshiligi aniqlandi.

4. Sintez qilingan sopolimerlar polisilikat kislota bilan gidrolitik polikondensatlanish mahsulotlari asosida kation o'tkazuvchi materiallar xossasiga ega bo'lgan yangi gibrid kompozitning olinish texnologiyasi asoslandi.

5. 1-(furanil-2)penten-4-in-2-ol-1 – akril kislota va PSK sopolimeri asosidagi kompozitlarning metallarning ionlarini adsorbsiyalash mexanizmining harorat bilan o'zgarishi aniqlandi,

6. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida o'tkazilgan sinovlarda ionitlarning kalsiy, magniy va mis ionlarini yutish qobiliyati hamda mexanik mustahkamligi Davlat standartlari talablariga javob beradi.

7. Ionit ishlab chiqarishning prinsipial texnologik sxemasi ishlab chiqildi, 1 tonna uchun mos ravishda 5 mln so'mni tashkil etuvchi ionitning iqtisodiy samaradorligi hisoblab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSC.03/30.12.2019.Т.04.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЖАМИЛОВА НИГИНАБОНУ КОБИЛ КИЗИ

**ПОЛУЧЕНИЕ, СВОЙСТВА И ТЕХНОЛОГИЯ СОЕДИНЕНИЙ С ЗАДАННЫМИ
СВОЙСТВАМИ НА ОСНОВЕ ФУРФУРОЛА**

02.00.14- Технология органических веществ и материалов на их основе.

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.2.PhD/T4592

Диссертационная работа выполнена в Бухарский государственный технический университета.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на сайте Ученого совета (ik-kimyo.nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Zionet» (www.zionet.uz)

Научный руководитель: **Ахмедов Вохид Низомович**
кандидат технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Адилев Равшан Иркинович**
доктор технических наук, профессор

Файзуллаев Нормурод Ибодуллаевич
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация: **Наманганский государственный технический университет**

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2025 г. в « ____ » часов на заседании Ученого совета DSc.03/30.12.2019.T.04.01 при Ташкентском химико-технологическом институте. (Адрес: 100011, г. Ташкент, Шайхантахурский район, ул. А.Навои, 32. Тел: (99871) 244-79-20, факс: (99871) 244-79-17, e-mail: tkti_info@edu.uz). Административное здание Ташкентского химико-технологического института, 2-этаж, конференц-зал.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского химико-технологического института (зарегистрирована за № 2024/1) (Адрес: 100011, г. Ташкент, Шайхантахурский район, ул. А.Навои, 32. Тел: (99871) 244-79-20)

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 года.
(протокол рассылки № ____ от « ____ » _____ 2025 г.).

С.М. Туробжонов

Председатель учёного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор, академик

Х.И. Кадиров

Секретарь ученого совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

Г. Рахмонбердиев

Председатель научного семинара
при ученом совете по присуждению
учёных степеней, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В связи с растущим спросом на промышленные органические продукты в мире, учитывая ограниченность запасов нефти и газа, возникает проблема использования новых природных ресурсов. Известно, что фурановые кольца содержатся в природных соединениях, фармацевтических препаратах (фубромиган, ранитидин, диданозин, зидовудин, фторфуран и др.), используются в качестве «зеленых» растворителей в производстве акрилатов и эпоксидных смол, входят в состав экологически чистого дизельного топлива и технических моющих средств. В этом аспекте особую важность имеет использование природного возобновляемого сырья, в том числе разработка новых типов полимерных композиционных материалов на основе фурана, сформированных на основе комбинации компонентов, обладающих химической природой, физико-механическими, магнитными, оптико-электронными свойствами и другими текстурными свойствами.

Во всем мире ведутся научные исследования по разработке состава полимерных композиционных материалов на основе фурана и селективной модификации спиртов с целью повышения их практических областей применения. В этом аспекте уделяется особое внимание винилированию фурановых соединений ацетиленом, синтезу виниловых эфиров, содержащих фурановый фрагмент, методом «зеленой» химии получению гибридных композиций, служащих матрицами для проектирования многофункциональных фурановых структур, а также созданию и апробации технологий получения материалов на их основе для целевого использования в промышленности.

В нашей республике уделяется особое внимание получению высокомолекулярных продуктов из комбинаций химически модифицированных, безвредных компонентов на основе соединений, содержащих фурановые кольца, их использованию в энерго- и ресурсосберегающих системах, и достигнуты определенные научные результаты в этом направлении. В стратегии развития Нового Узбекистана определены важные задачи, в частности «дальнейшее развитие экспортного потенциала отраслей местной промышленности на основе максимального задействования имеющихся возможностей, внедрение стандартов, соответствующих требованиям внешнего рынка и соответствующая международным стандартам»¹. В этом отношении, особое значение имеют исследования по получению гибридных полимерных систем на основе продуктов золь-гель синтеза с участием винилпроизводных гетероциклических соединений, содержащих фурановое кольцо, производству органической матрицы для сорбентов, протонпроводящих мембран, эмульгаторов и фармацевтических препаратов.

Данное диссертационное исследование в определенной мере служит реализации задач, поставленных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на

¹ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

2022-2026 годы», Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-3236 от 23 августа 2017 года «О Программе развития химической промышленности на 2017-2021 годы», № ПП-4265 от 3 апреля 2019 года «О мерах по дальнейшему реформированию и повышению инвестиционной привлекательности химической промышленности» и других нормативно-правовых актах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики VII. «Химические технологии и нанотехнологии».

